

“Navro‘z — yangilanish, poklanish va ezgulik ayyomi”

(Namunaviy tezis)

Navro‘z — xalqimizning asrlar qa‘ridan bizgacha yetib kelgan, milliy o‘zligimiz, ma‘naviy qadriyatlarimiz va ezgu an‘analarimizni o‘zida mujassam etgan ulug‘ ayyomdir. Bu bayram sharqona tafakkur, mehr-oqibat va bag‘rikenglik timsoli sifatida yurtimiz hayotida alohida o‘rin egallaydi.

Navro‘zning tarixi ming yilliklarga borib taqaladi. U 2009-yilda YUNESCO tomonidan Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lsa, 2010-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 21-mart “Xalqaro Navro‘z kuni” deb e‘tirof etildi. Bu esa Navro‘zning nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyat ekanini tasdiqlaydi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida Navro‘z umumxalq bayrami sifatida yangicha mazmun va ma‘rifiy ruh bilan boyib bormoqda. Bugun bu ayyom nafaqat sayil va tantana, balki saxovat va muruvvat, bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, milliy qadriyatlarni targ‘ib etish kabi ezgu tashabbuslar bilan uyg‘un holda o‘tkazilmoqda. Bu jarayonlar jamiyatimizda hamjihatlik va birdamlik muhitini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Navro‘z — bu, avvalo, yangilanish ayyomi. Tabiat uyg‘onadi, yer ko‘karadi, qalblar ezgu niyatlar bilan to‘ladi. Kun va tun tenglashuvi — hayot muvozanati, adolat va uyg‘unlik ramzidir. Har bir xonadonda yangi orzu-umidlar bilan dasturxon yozilishi, nihollar ekilishi, yerga urug‘ qadash marosimlari kelajakka ishonch va baraka timsolidir.

Navro‘z — poklanish ayyomi. Bayram arafasida uy-joylarni tozalash, ko‘ngillardan gina-kuduratni chiqarish, kattalardan duo olish, bemor va ehtiyojmandlardan xabar olish kabi an‘analar ma‘naviy poklik va qalb musaffoligini anglatadi. Bu jarayon insonni o‘z-o‘zini tahlil qilishga, ezgulikka yuz tutishga undaydi.

Navro‘z — ezgulik va mehr-oqibat ayyomi. Sumalak atrofida jam bo‘lib bir niyat bilan tilak qilish, qo‘ni-qo‘shni va qarindosh-urug‘lar bilan diydorlashish, saxovat tadbirlarini o‘tkazish — bularning barchasi jamiyatda insoniylik, bag‘rikenglik va hamjihatlik tuyg‘ularini mustahkamlaydi. Ayniqsa, yosh avlod qalbida milliy o‘zlikni anglash, Vatanga muhabbat va sadoqat fazilatlarini shakllantirishda Navro‘zning o‘rni beqiyosdir.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek: "Bizning kuchimiz – birlik va ahillikda, qudratimiz – Vatanga mehr va sadoqatda, yutug'imiz – o'zimizga bo'lgan yuksak ishonchimizda!"

Darhaqiqat, Navro'z ana shu birligimizni yanada mustahkamlaydigan, Vatanga mehr va sadoqat tuyg'ularini qablarga jo etadigan, ertangi kunimizga bo'lgan ishonchni yuksaltiradigan ulug' bayramdir.

Barchangizni Navro'z ayyomi bilan chin qalbimizdan muborakbod etamiz. Xonadonlaringizga fayz-u baraka, qalblaringizga shukronalik va ezgulik yog'ilsin. Yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi va davlatimiz ravnaqi yo'lida qilayotgan sa'y-harakatlarimiz bardavom bo'lsin.

Navro'z — yangilanishga chorlov, poklanishga da'vat va ezgulikka intilish ramzi sifatida qalblarimizda abadiy yashayversin!